

# SOTSIOLINGVISTIKANING SOTTSIOLOGIYA BILAN BOG'LQLIGI

## RELATIONSHIP OF SOCIOLINGUISTICS WITH SOCIOLOGY

*Ravshanova Feruza Murodullayevna*

*O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va  
folklori instituti kichik ilmiy xodim*

*[ravshanovaf24@gmail.com](mailto:ravshanovaf24@gmail.com)*

*Tel: +998909978002*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sotsiolingvistika va sotsiologyaning vazifalari misollar yordamida olib berildi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini, uning ijtimoiy funksiyalarini, ijtimoiy omillarning tilga ta'sirini o'r ganuvchi yo'nali sh ekanligi ko'rib o'tildi. Sotsiolingvistika va sotsiologyaning bog'lilik jihatlari ko'rsatildi.

**Annotation:** In this article, the tasks of sociolinguistics and sociology were explained with the help of examples. It was considered that sociolinguistics is a field that studies the social nature of language, its social functions, and the influence of social factors on language. The relationship between sociolinguistics and sociology was shown.

**Kalit so'zlar:** Sotsiologiya, sotsiolingvistika, etnolingvistika, lingvistika, konsept, jamiyat, muloqot.

**Key words:** Sociology, sociolinguistics, ethnolinguistics, linguistics, concept, society, communication.

Sotsiolingvistika sohasi fan sifatida yuzaga kelguniga qadar olimlarning fikrlari turlicha ekanligini kuzatishimiz mumkin. Sotsiolingvistika jamiyat tilini o'r ganadigan soha yoki jamiyat tili, sotsiolingvistika etnolingvistikaning ichida o'r ganilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi, deya bildirilgan fikrlar ham mavjud. A.Keypel sotsiolingvistik muammolar tadqiqini, asosan, terminologik jihatdan chegaralaydi. Uning fikricha: "Etnolingvistika" termini "Sotsiolingvistika" terminiga ko'ra umumiyroq xarakterga ega bo'lsa-da, "Sotsiolingvistika" termini ma'quldir, chunki bu nomning o'zi o'zini aniqlab keladi.[1;7]. Sotsiolingvistika hozirgi tilshunoslikning yangi sohalaridan biri bo'lib, tilni jamiyat bilan bog'liq holda o'r ganadi. Sotsiolingvistika tilning jamiyatdagi ijtimoiy jihatlariga e'tibor qaratadi. Lingvistika lisoniy belgilarni, tovush va uning yozma ifodasini, uning boshqa belgilari bilan o'zaro munosabatini, vaqt va zamonda o'zgarishini tahlil qilish kabi yana bir qancha funksiyalarini o'r ganish bilan shug'llansa, sotsiolingvistika insonlar mazkur lisoniy belgilarni ularning yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, bilimi va madaniyatiga ko'ra qanday qo'llanishlarini ya'ni ijtimoiy muhit ularning nutqiy muomalasiga qanday ta'sir qilishini o'r ganadi. Masalan, "Ok"

konseptini an'anaviy tilshunoslik, so‘zning xo‘p, mayli, kelishdik, tushunarli, ko‘rishguncha kabi bir qancha leksik ma’nolarini o‘rganadigan bo‘lsa, sotsiolingvistika bu so‘zning nafaqat ma’nosini ijtimoiy jamiyatda “Ok” konseptini jamiyatning qaysi soha vakllari, ijtimoiy mavqeyiga ko‘ra, yoshi, qo‘llanilish maqsadi kabilarni o‘rganadi. “Ok” konseptini ko‘proq yoshlar orasida (10 yoshdan 40 yoshgacha) qo‘llanilishi, ijtimoiy roli jihatidan esa, maktab yoshidagilar hamda o‘rta yoshlilar orasida yuqorida keltirilgan ma’nolarda qo‘llanilishi va bu bugungi kunda ko‘proq yoshlar orasida so‘zlarni qisqartirib yozishga bo‘lgan xohishning kuchayishi hamda yoshlarning ingliz tilini bilishi, muloqot jarayonida bevosita ingliz tilidagi ibora va so‘zlarni qo‘llashi deya, baholash mumkin. Sotsiolingvistika jamiyatdagi insonlarning tildan qanday foydalanishlarini tadqiq etadilar. Tilga ta’sir qiluvchi barcha ijtimoiy omillar muloqotga kiruvchilarning yoshi, jinsi, madaniyati bilim darajasi, kasbi, ijtimoiy hayotdagi mavqeyi, aniq nutqiy aktning xususiyatlarini hisobga oladi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini, uning ijtimoiy funksiyalarini, ijtimoiy omillarning tilga ta’sirini o‘rganadigan fandir.

Sotsiolingvistikaning predmeti “Inson va jamiyat” deyish mumkin. Har qanday til va tildagi hodisalar, nutqimizda yangi so‘zlarning qo‘llanilishi, lug‘at boyligimizning kengayishi, asosiy davlat tilining yonidan ikkinchi tilning yuzaga kelishi, nutqimizda qo‘llanilishi bevosita jamiyat bilan bog‘liqdir.

Jamiyatning dunyoqarashi, harakteri, rivojlanishi, sohalar bilan bog‘liqligi, sohalarning jamiyatdagi o‘rni, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi kabi masalalarni – sotsiologiya fani o‘rganadi. Sotsiologiya mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi yarmida vujudga keldi. Sotsiologiya lotincha “societas” – jamiyat va yunoncha “logos” – tushuncha, ta’limot ma’nosini anglatib, jamiyatning tarkibiga kiruvchi alohida, institutlar, tizimlar, guruhlar va ularning o‘zaro aloqadorligini o‘rganuvchi fandir. Demak, sotsiologiya umumiy ma’noda jamiyat to‘g‘risidagi fandir[2;5]. Turli sotsiologik ta’limot yo‘nalish vakillari sotsiologiya fani predmeti to‘g‘risida turlicha fikrlar bildirgan. Jumladan, sotsiologiya fani asoschisi O.Kont sotsiologiyani jamiyat to‘g‘risidagi pozitiv fan deb hisoblagan. Amerikalik sotsiolog Dj.Smelzer o‘zining “Sotsiologiya” darsligida sotsiologiya jamiyat to‘grisidagi fan ekanligini ta’kidlaydi. E.Dyurkeym esa sotsiologiya predmetini ijtimoiy ma’lumotlardan iborat deb bilgan . U sotsiologiya buyuk falsafiy ta’limotlardan yuzaga kelganligini e’tirof etadi va doimo qandaydir falsafiy yondashuvlarga suyanganligini ta’kidlaydi[2;6]. Berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, sotsiologiyani jamiyatni o‘rganuvchi fan deyishimiz mumkin. Sotsiolingvistika jamiyatdagi tilni qo‘llanilishiga e’tibor qaratadi. Sotsiologiyaning vazifasi jamiyatdagi shaxslarning munosabatini o‘rganishni maqsad qilsa, sotsiolingvistikaning asosiy maqsadi jamiyatdagi til ko‘rinishini yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqeyi, roli kabilarga bo‘lib o‘rganishdir. Umuman olganda sotsiologiya jamiyatdagi

shaxslar bilan bog‘liq, hodisalar, vaziyatlar, iqtisodiy, siyosiy yana yuqorida keltirilgan bir qancha insoniyat bilan bog‘liq masalalarni tadqiq qiladi.

Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan bog‘liqlik jihatlari ko‘proq o‘rganiladi. Sotsiologiya iqtisodiyot, falsafa, huquq, etika, psixologiya, pedagogika, tarix, ekologiya kabi fanlar bilan aloqador, sotsiolingvistika esa jamiyatdagi til ko‘rinishini tilshunoslik bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Sotsiolingvistika tilshunoslikning etnolingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika kabi sohalari bilan bog‘liq holda tadqiq qilishi mumkin. Fikrimizcha, sotsiologiyaning fanlar bilan aloqadorligi kesishadigan nuqtalari ko‘proq, sotsiolingvistika esa jamiyat va tilshunoslik bilan bog‘liqdir. Sotsiolingvistika til sohasi bo‘lib, u til hodisalariga ijtimoiy omillarni jalb qilgan holda o‘rganadi. Sotsiologiyaning til bilan aloqadorligi esa tadqiqot metodlarining lingvistik materiallar bilan bog‘liqligidadir. Sotsiolingvistika tilshunoslik hamda sotsiologiyaning kesishuvi natijasida yuzaga kelgan sohadir. Sotsiolingvistika jamiyatdagi tilni qo‘llanilishiga e’tibor qaratadi. Sotsiologiyaning vazifasi jamiyatdagi shaxslarning munosabatini o‘rganishni maqsad qilsa, sotsiolingvistikaning asosiy maqsadi jamiyatdagi til ko‘rinishini yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqeyi, roli kabilarga bo‘lib o‘rganishdir. Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan bog‘liqlik jihatlari ko‘proq o‘rganiladi. Sotsiologiya iqtisodiyot, falsafa, huquq, etika, psixologiya, pedagogika, tarix, ekologiya kabi fanlar bilan aloqador, sotsiolingvistika esa jamiyatdagi til ko‘rinishini tilshunoslik bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Sotsiolingvistika jamiyatning til sohasi bo‘lib, u til hodisalarini ijtimoiy omillarga bog‘lagan holda o‘rganadi. Masalan, Germaniya, Buyuk Britaniya va AQShning ishchi yoshlari orasida yuqori qatlama farzandlariga nisbatan imkoniyati cheklanganligini, ishchi oilaning farzandlari ta’lim muassasalariga (maktablar, gimnaziyalar, universitet) kirish imkoniga ega bo‘lishmagan. Yuqori qatlama farzandlarining ta’lim sohasidagi imtiyozlari natijasida til bilishi, ishchi oila farzandlari esa tilni o‘zlashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklashiga olib kelgan[3;42]. Jamiyatdagi bu kabi tabaqalashtirish holati bevosita tilga bo‘lgan ta’sirini ko‘rsatadi, sotsiologiya va sotsiolingvistikaning bog‘liqligi, asosan mana shu o‘rinda namayon bo‘ladi.

Xulasa qilib aytganda, sotsiolingvistika va sotsiologiya doim bir-birini taqazo qiladi. Til muloqot vositasi, muloqot esa inson va inson, inson va jamoa, inson va jamiyatning turli soha vakillari bilan bo‘lgan muloqot jayonida namayon bo‘ladi. Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy jihatdan rivojlanganligi tilda namayon bo‘ladi. Jamiyatning qanchalik rivojlanganligi va rivojlanayotganligini tilga bo‘lgan munosabatdan bilib olish mumkin.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Dadaboyev.H, Usmanova.Sh . Xorijiy sotsiolingvistika. – Toshkent: 2023.
2. Saitxodjayev.X.B. Sotsiologiya. – Toshkent, 2017.
3. Юсселер.М. Социолингвистика. – Киев, 1987.

4. Usmanova.Sh., Bekmuhamedova.N., Iskandarova. G. Sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2014.
5. Berdialiyev.A. O'zbek sinxron sotsiolingvistikakasi. – Toshkent, 2019.
6. Xoliqulova.M. Sotsiologiya va til sotsiologiyasi. International Conference on Research. 2022.